

THE GREAT SILK ROAD

Tasheva Shahnoza Jalilovna

Karshi city of Kashkadarya Region., Karshi Specialized Art School

ANNOTATION

This article provides important information about the Great Silk Road, its significance, history, borders, and trade.

Keywords: Great Silk Road, silk, horses, trade, Xi'an.

INTRODUCTION

Vatanimiz xalqlari tarixida "Buyuk ipak yo'li" katta ahamiyatga egadir. Qadim-qadim zamonlar tarixiga ko'z tashlar ekanmiz, jamiyat taraqqiyotini bronza davridan ham ilgari davrlardan boshlab hududlararo bog'lovchi vosita sifatida unga xos ixtisoslashgan yo'llar paydo bo'lganligini ko'ramiz. G'arb bilan Sharqni bir necha ming yillar davomida bir-biriga bo'g'lab kelgan qadimga yo'llardan biri "Buyuk ipak yo'li" dir. Uning uzunligi 12000 km bo'lgan. Buyuk Ipak yo'li miloddan avvalgi II asrda ochildi. Bu yo'l faqat savdo yo'li emas edi. U, ayni paytda, dunyo xalqlari o'rtasida madaniy hamda davlatlararo aloqalar yo'li sifatida ham xizmat qildi. Yo'l Xitoyning Xuanxe daryosi bo'yida joylashgan Sian shahridan boshlanib, ikki yo'nalishli bo'lgan. Buyuk Ipak yo'li biri Eron orqali O'rtayer dengizigacha, ikkinchisi Shimoliy Kavkaz orqali Qora dengizgacha yetib borgan. Ikkinchi yo'nalish Xitoydan boshlanib, Pomir-Tyan-Shan tog' tizmalaridan o'tib, Afg'onistonga, undan Hindistonga olib chiqqan.

«Buyuk» so'zi yo'lning juda uzun bo'lganligini hamda juda ko'p xalqlar taqdiriga aloqador bo'lganligini anglatadi, «ipak» so'zi esa yo'lning, asosan, ipak savdosiga xizmat qilganligini bildiradi.

Akademik A.Askarov ma'lumotlariga qaraganda «Buyuk ipak yo'li» yuqorida ta'kidlanganider Xitoyning qadimti markazi Siandan boshlanib, Lanchjou orqali Dunxuanga keladi. By yerda u ikkiga ajraladi. Ipak yo'lining Janubi-garbiy tarmog'i Taklamakon sahrosi orqali Xotanga, undan Yorkentga kelib, Pomir tog'ning daralari orqali Vahonga, undan Baqtriyaning bosh shahi Zariaspga (Balx) kelgan. Balxda yo'l yana uch tarmoqqa ajraladi, g'arbiy tarmog'i Marvga, janubiy tarmog'i Hindistonga, shimoliy tarmog'i Termiz orqali Darband, Nautak, Samarqandga qarab ketadi.

«Ipak yo'li»ning shimoli-g'arbiy tarmog'i esa, Dunxuandan Bami, Turfan orqali Tarim vohasiga – Qashg'arga boradi. U yerdan Toshqo'rgon orqdli O'zgan, O'sh, Quva, Axsikent, undan Asht dashti orqali Xo'jand, Zomin, Jizzaxga, so'ngra Samarqandda Nautak yo'li bilan birlashadi. Yo'l Samarqanddan g'arbga - Dobusiyaga, Malik cho'l orqali Buxoro va Romitanga, undan Varaxsha orqali Boykent va Forobga borib Amul shahriga o'tadi. Amulda Marvdan Urganch tomon Amu buylab ketayotgan yo'lga qo'shilgan. Qadimda Marv shahri turli yo'nalishdagi karvon yo'llari tutashadigan geografik qulayliklariga ko'ra ipak yo'lidagi eng yirik shahar edi. Shuning uchun ham Marvda mahalliy din-zardushtiylik ibodatxonalari-dan tashqari Hindistonning budda tayanchlari bor edi. Qadimgi «ipak yo'li» ungacha shu mintaqadan «lazurit yo'li», «shoh yo'li» asosida Marvdan G'arbga tomon katta karvon, savdo yo'li bo'ylab

Xiton, Hindiston va O'rta Sharqni Yagin Sharq va O'rta Yer dengizi mamlakatlari bilan bog'lab turadi.

O'rta Osiyo orqali Xitoydan g'arbga o'tadigan savdo karvon yo'llari doimo so'g'diylar nazorati ostida edi. So'g'dlar IV-V asrlarda tarkib topgan va Turfondan Shimoliy Mo'g'ulistonga tomon ketgan uyg'ur yo'li, VIII asrda qaror topgan va Sharqiy Turkistondan Jung'oriya orqali Xaqasiyaga borib yetgat qirg'iz yo'lidan ham foydalanganlar. Bu yo'llar ichida Dunhuandan shimoli- g'arbga ketgan ipak yo'li alohida ahamiyatga ega edi. Bu yo'lning ahamiyati Xitoy hukumatiga Xan sulolasining hukmdori U- di tomonidan Sharqiy Turkiston xunnlari qarshi ittifoq izlab, Qang'uyga yuborilgan Xitoy elchisi va sayyohi, saroy zobiti Chjan Syan orqali ma'lum bo'lgan. Bungacha Xitoy G'arbiy meridional yo'lidan foydalanilgan. Bu yo'l orqali Xotan nefriti Xitoyning markaziy viloyatlariga miloddan avvalgi II ming yillikdan kela boshlagan edi. Nefrit savdosi yuedji qabila ittifoqi asosiy vositachi bo'lgan. Xan sulolasi davrida ana shu nefrit savdo yo'li orqali Sharqiy Turkistonga ko'plab ipak matolari borardi. Xitoy bu yo'lni iqtisodiy zaruriyat tufayli qo'lga kiritishga harakat qildi. Biroq miloddan avvalgi 165 yilda bu yo'l hunlar qo'lga o'tdi. Shundan keyin Xan podshosi U-di Farg'ona (Davanga) ko'z tikib, miloddan avvalgi 104- 101 yillarda bu hududga ikki marta harbiy yurish qiladi. Shimoliy –g'arbiy ipak yo'li faqat iqtisodiy jahatdagina ahamiyatli bo'lib qolmasdan, ayni paytda u diniy, madaniy meros yutuqlarini tarqatuvchi, mamlakatlararo diplomatik aloqalarni ta'minlovchi yo'l ham edi. Budda dini xuddi mana shu yo'l bilan Xitoyga Markaziy Osiyo orqali kirib kelgan. IV-III asrlarda Xitoyning tashqi olam bilan har sohada aloqalari kengayadi, buddizm keng yoyiladi, O'rta Osiyoning moddiy va manaviy qadiryatlari keng ko'lamda Xitoyga tarqaladi.

Ipak mahsulotlari Yevropa xalqlarini juda maftun etgan. U zamonlarda Yevropa ipak nimaligini bilmagan. Bizning bobolarimiz va xitoyliklar ipakdan ajoyib matolar to'qiganlar. Bu matolar yevropaliklarni lol qoldirgan. Ba'zi yozma manbalarda yozilishicha, hatto bir vaqtlar ipak mato o'rami pul o'rnida ham ishlatilgan.

Buyuk Ipak yo'li qaysi davlat hududidan o'tgan bo'lsa, shu davlat hukmdorlari yo'l yoqasida bekatlar, karvonsaroylar qurdirganlar. Yo'lning xavfsiz bo'lishi choralarini ko'rganlar. Chunki, bu yo'l tufayli shu davlatning ham savdo-sotiq ishlari rivojlangan. Qolaversa, savdo karvonlarining egalari boj ham to'laganlar. Bu esa davlat xazinasiga katta daromad keltirgan. Buyuk Ipak yo'li yurtimiz tarixida ham katta iz qoldirdi. Buyuk Ipak yo'li dunyo xalqlariga o'n yetti asr davomida xizmat qildi.

“Ipak yo'li” savdosida Xitoy manbalariga qaraganda otlar alohida ahamiyat kasb etgan. Otlarning bahosi ipakning bahosi singari juda yuqori bo'lgan. Ayniqsa Tuva, Xaqasiya, Oltoy, Farg'ona vodiysi va Ettisuv viloyatlarida etishtirilgan otlar zotdor va bebaho bo'lgan.

Yozma manbalardagi malumotlarga qaraganda III-VII asrlarda O'rta Osiyo va O'rta Sharq orqali o'tgan ipak yo'lining nazorati so'g'dlarning qo'lida bo'lgan bo'lsa, VIII asr o'rtalariga kelib, “Ipak yo'li” Temur va Temuriylar nazorati ostida o'tdi. “Ipak yo'li” orqali Xitoydan G'arb mamlakatlariga, asosan, ipak ilk o'rta asrlardan boshlab qog'oz chiqarilgan bo'lsa, g'arb mamlakatlaridan Xitoyga shisha, jundan ishlangan har xil gazlamalar, gilam, palos, oyna, metall, zebir- ziynat bezaklari, qimmatbaxo toshlar: lazurit, biryuza, serdalik har xil dorivorlar, arg'umoq otlar olib borilgan.

«Ipak yoʻli» Oʻrta Osiyo Sharq bilan Garb oʻrtasida vositachilik qilgan. Bir soʻz bilan aytganda, «Ipak yoʻli» Sharq va Gʻarb xalqlari xayotida gʻoyatda muhim va tarixiy oʻrin tutgan. U xalqlarni siyosiy, iqtisodiy, savdo va madaniy sohalarda bogʻlabgina qolmasdan, balki ayni zamonda bu yoʻl dunyo xalqlari oʻrtasida tinchlik osoyishtalik totuvlik qoʻshnichilik doʻstlik va qardoshlarcha birodarlik yoʻli ham boʻlgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Sulaymonova F. Sharq va Gʻarb. T."Oʻzbekiston", 1997 yil.
2. Ratkevich V.A. Velikiy, Shedkoviy put. M.M. 1990 yil.
3. Ipak yoʻli afsonalari . T. "Fan" 1993 yil.
4. Formirovaniye i razvitiy trass Velikogo Shelkovogo Puti v sentrlnoy Azii v Dvernosti i srednevekov. Tezisy dokladov Samarqand, 1990 yil.
5. Buyuk ipak yoʻlidagi Markaziy Osiyo shaxarlari. Maʼruzalar bayoni. Samarqand 1994 yil.